



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING NUTQIY SAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Jurayeva Nilufar Shovkat qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'limda ona tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasini" va TIUE «Ta'lim boshqaruvi va pedagogika kafedrasini» o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'qituvchilarning nutqiy savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Nutqiy kompetensiyani shakllantirish jarayonida kommunikativ, interfaol va innovatsion usullardan foydalanish muhimligi ta'kidlanadi. Shuningdek, o'qituvchilarning og'zaki va yozma nutq madaniyatini oshirishga xizmat qiluvchi samarali metodik tavsiyalar bayon etiladi.*

***Kalit so'zlar:** nutqiy savodxonlik, metodik yondashuv, kommunikativ kompetensiya, interfaol usullar, innovatsion pedagogika, zamonaviy metodlar, texnologiyalar integratsiyasi, intonatsiya va aksent.*

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МЕТОДИКЕ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ ГРАМОТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются методические подходы к развитию речевой грамотности учителей. Подчеркивается важность использования коммуникативных, интерактивных и инновационных методов в процессе формирования речевой компетенции. Также представлены эффективные методические рекомендации, способствующие развитию устной и письменной речевой культуры педагогов.*

***Ключевые слова:** речевая грамотность, методический подход, коммуникативная компетенция, интерактивные методы, инновационная педагогика, современные методы, интеграция технологий, интонация и акцент.*

MODERN APPROACHES TO METHODOLOGY FOR DEVELOPING SPEAKING LITERACY COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS

***Annotation.** This article examines methodological approaches to developing teachers' speech literacy. The importance of using communicative, interactive, and innovative methods in the formation of speech competence is emphasized. Effective methodological recommendations aimed at improving teachers' oral and written speech culture are also provided.*

***Key words:** speech literacy, methodological approach, communicative competence, interactive methods, innovative pedagogy, modern methods, technology integration, intonation and accent.*



KIRISH

O'qituvchilarda nutqiy savodxonlikni rivojlantirishda metodik yondashuvlar va usullar muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarni nutqiy savodxonlikka o'rgatishda qo'llaniladigan metodlar quyidagilardan iborat:

1. *Fonetika va fonologiya metodlari.* O'qituvchilarga nutqning talaffuzi va tovushlar bilan ishlashni o'rgatish, to'g'ri intonatsiya va aksentni shakllantirish. Bu jarayon fonetik mashqlar, talaffuzni tahlil qilish, nutqni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

2. *Grammatika metodlari.* O'qituvchilarni grammatik qoidalar bilan tanishtirish va ularga nutqiy shakllarni, jummalarni to'g'ri tuzish va grammatik jihatdan xato qilmaslikni o'rgatish.

3. *Kommunikativ metodlar.* O'qituvchilarni samarali muloqotda bo'lishini ta'minlash, auditoriya bilan o'zaro aloqalarni samarali yo'lga qo'yish, o'quvchilarga to'g'ri nutq talaffuzini o'rgatish.

4. *Rolle-play va dramatisatsiya metodlari.* Nutqiy savodxonlikni rivojlantirishda o'quvchilarga turli rollarda o'ynash orqali muloqot qilishni o'rgatish, bu orqali nutqni real hayotda to'g'ri qo'llashga o'rgatish.

Bo'lajak o'qituvchilarda nutqiy savodxonlikni rivojlantirish jarayoni nazariy va amaliy jihatni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonning pedagogik asoslari quyidagicha ajratiladi:

Nazariy asoslar:

1. *Nutqiy savodxonlik va ta'lim tizimi.* Nutqiy savodxonlik, ta'lim tizimining har bir bosqichida, ya'ni boshlang'ich, o'rta va yuqori ta'lim bosqichlarida rivojlanishi kerak. O'qituvchilarga nutqiy savodxonlikni o'rgatishda nazariy bilimlarni o'zlashtirishning ahamiyati katta. Bu bilimlar tilshunoslik, psixolingvistika, pedagogika va boshqa sohalarning nazariy asoslarini o'z ichiga oladi.

2. *Komponentlar:* Nutqiy savodxonlikni rivojlantirishda asosiy komponentlar o'qituvchi nutqining sifatini baholash va yaxshilash bo'yicha nazariy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Shu jumladan, nutqiy savodxonlikni rivojlantirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlarini ko'rib chiqish, ularning natijalariga asoslanib yangi metod va usullarni ishlab chiqish zarur [1].

Amaliy asoslar:

1. *Amaliy mashqlar va interaktiv metodlar:* Nutqiy savodxonlikni rivojlantirishda turli amaliy mashqlar, rolli o'yinlar, jamoaviy munozaralar, guruhli ishlar va boshqa interaktiv metodlar muhim rol o'ynaydi. Bu metodlar o'qituvchilar



nutqini yaxshilashga, fikrni aniq va to'liq ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

2. *Nutqiy pedagogika*: Nutqiy pedagogika o'qituvchilarga nutqni o'rganishda metodik yondashuvlarni ishlab chiqadi, o'qituvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Pedagogik uslublar va yondashuvlar, o'qituvchilarni nutqiy savodxonlikka o'rgatish uchun eng samarali metodlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi [2].

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarda nutqiy savodxonlikni rivojlantirish – ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar, pedagogik metodlar va texnologiyalarni integratsiyalash zarur. Nutqiy savodxonlik o'qituvchining nafaqat o'z malakalarini oshiradi, balki o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish va ta'limni sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizova F. Ingliz tili frazeologizmlarini o'rgatish metodikasi. - Toshkent, 2011. - 72 bet.
2. Bo'ronov J. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. – T. 2007. – 284 bet.
3. Jumayeva, M. B. (2021). Interactive Methods Used in.
4. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – T.: 2012. - 427 bet.
5. Jumayeva, M. B. (2022). Oliy Ta'limda Innovatsion Usul Va Vositalar. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 20), 214-226. doi: 10.24412 (Vol. 226). 2181-1784-2022-20-214.
6. Turapovna, I. S., & Dilnoza, J. (2024). Diskurs Va Uning Ilmiy Talqini. Fan, Ta'lim, Madaniyat Va Innovatsiya Jurnal| Journal Of Science, Education, Culture And Innovation, 3(5), 188-193.
7. Allaberganov, D., & Zubtiyev, S. (2023). Specific Pathomorphology of Liver Tissue in Neonatal Sepsis. Talqin va tadqiqotlar, 1(7).
8. Turapovna, I. S. (2024). Representation of The Essence Of Lexemes In Thesauruses. Fan, Ta'lim, Madaniyat Va Innovatsiya Jurnal| Journal Of Science, Education, Culture And Innovation, 3(5), 200-205.
9. Bakhronova, D., Alavutdinova, N., Israilova, S., & Vilchis, V. V. Color Lexemes in Context: Cognitive and Cultural Explorations.
10. Turapovna, I. S. An International Multidisciplinary Research Journal.
11. Turapovna, I. S. The Pragmatic Occurrence And Mental Properties Of Color Component Units In Context.
12. Turapovna, I. S. (2024). Ranglarning Etnolingvistik Va Milliy-Madaniy Xususiyatlari. Fan, Ta'lim, Madaniyat Va Innovatsiya Jurnal| Journal Of Science, Education, Culture And Innovation, 3(5), 206-214.